

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUksak QADRIYATIDIR

Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi, Nurmamatov Farhod Mamaniyozovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabalari

Annotatsiya: Millatlararo totuvlik g'oyasi Yer yuzida yashayotgan barcha etnik guruhlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch –totuv yashash g'oyasidir . Millatlararo totuvlik g'oyasi tinchlik va barqarorlik goyasidir. U barcha milat va elatlarining tili, urf –odati, an'analari, bayramlari rivjlanishini talab etadi. Milatchilik,fashizim, miliy va etnik ko'rinishidagi urushlarga qarshi turadigagan yagona ma'rifiy g'oyadir .Ayniqsa bugun neofashizim bosh ko'tarayotgan sivilzatsiyalararo to'qnashuvlar sodir bo'layotgan sharoitda millatlararo totuvlik g'oyasi dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Kirish so'zlar: Baynilmilal, mentalitet, milliy-madaniy markazlar, millatlararo totuvlik, konfessiya, formal, ichki bag'rikenglik tolerantlik, seminariya

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O'zbekiston xalqini millatidan qat'I nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqoralari tashkil etadi” degan muhim qoiqda belgilab qo'yilgan. Bugun O'zbekistonda 138ta milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga tadbiq etmoqda. Ruslarning “Maslenitsa”, tatarlarning “sabanto'y”,uyg'urlarning “sayil”, bayramlari, xitoylarning “Chunuze” yangi yili, koreyslarning “Soller” va “Ovol-tano” bayramlari nishonlanmoqda. O'zbekiston aholisining 80%ini o'zbek, 4,9%ini tojik, 3,8%ini rus, 3,6%ini qozoq, va 7,7%ini boshqa turli millatlarga mansub kishilar tashkil etiladi. Agar 1992- yilda 10ta milliy-madaniy markazlar ish olib brogan bo'lsa hozirga kelib esa mamlakatda 138ta milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda.1992-yil tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi esa ushbu milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga tashkiliy va uslubiy yordam ko'rsatib keldi. Bugungi kunda ham millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyi dunyoda eng dolzARB muammolardan biridir. Shu munosabat bilan YUNESKO 1995-yil Parijda “Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”ni qabul qildi.Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa har yilning 16- noyabrini “Xalqaro bag'rikenglik kuni”deb e'lon qilindi.Bugun respublika hududida yashovchi 130dan ortiq millat va elat vakillari uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi millatlararo totuvlik ni mustahkamlash, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni taminlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan .Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish choratadsbitrlari to'g'risidagi” farmoni qabul qilindi.Baynalminal so'zi arabcha so'z bo'lib millatlar o'rtasidagi xalqaro umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarda qo'llaniladi. Mentalitet so'zi nemischa aql, idrok jamiyat, millat jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi.SSSR davrida O'zbekistonda 89ta masjid, 2ta madrasa bo'lgan bo'lgan, 2017-yilga qadar esa 2033ta masjid, Islom universiteti, Islom institute, 16ta diniy konfessiyalar faoliyat yuritib keldi. 1991-yil davlatning v ijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi” Vijdon erkinligi va diniy ytashkilotlar to'g'risidagi” qonuni qabul qilindi. 1992- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

etildi. 1998-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Vijdon erkinligi va diniy ytashkilotlar to'g'risidagi" qonunning yangi tahriri qabul qilindi. 2007- yilda Islom Hamkorligi Tashkilotining ta'lif, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tuzilmasi AYSESKO tomonidan "Toshkent – Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi. Toshkentda 2013-yil qurilishi boshlangan Minor masjidi 2014- yilning 1-oktabrida, Qurbon hayiti kuni ochildi. Masjid 2400 dan ortiq namozxonga mo'ljallangan. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Markaziy osiyoda yagona bo'lgan Toshkent Islom universitetiga asos solindi.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalar haqida to'xtalar ekan, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish taklifini ilgari surdi. "Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lif olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat . Ushbu rezolutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan". 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida 51-yig'ilishida mazkur rezolyutsiya 193 ta a'zo mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi. Konfessiya- lotincha tan olish diniy ishonch . Tolerantlik-lotincha sabr toqat o'zgalarning fikr g'oyalari bag'rikenglik . Seminariya- xristian cherkovlari uchun ruhoniylar tayyorlaydigan o'quv yurti. Yurtimizda bag'rikenglik va murosaning ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatgan turli dinlar madaniyati bo'yicha izlanishlar qilgan yapon olimi Kyudzo Katoningta'kidlashicha, Surxondaryo vohasidagi noyob budda madaniyati yahudiy yodgorliklari, Buxorodagi nasroniylar ziyoratgohlari yurtimizdagagi islom obidalari bilan bir qatorda turishi hech kimni ajablantirmaydi.

Xulosa:Dunyoda globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan bugungi kunda turli madaniyat va dinga mansub xalqlar o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.O'zbekiston zaminida azaldan islom dini bilan yonma –yon boshqa dinlar ,madaniyatlar ham yashab, rivojlanib kelgan .Asrlar davomida yirk shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalar mavjud bo'lgani, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'limganligi xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida katta tajriba to'planganidan dalolat beradi. Hozir yurtimizda turli millat va elat vakillarining diniy urf-odatlari ,an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish hamda bag'rikenglik tamoyillarini ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Muhimi, bag'rikenglik xalqimizning azaliy qadriyatlariga aylanganini butun jahon e'tirof etmoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne'matillo Muhammedov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islom tarixi va manbashunosligi-IRCICA kafedra mudiri, tarix fanlari doktori, dotsent
2. Manba: "Yangi ozbekiston" gazetasi 2021-yil 09-iyun 116-son 6-bet
3. O'zbekiston tarixi: N.Jo'rayev,A.Zamonov. 1-nashri,-T:. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi 2018- 144-b